



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 07 | pp. 1-8 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



S.J. Yangiboev

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti, Islom Karimov, 49, 100003

E-mail: s.yangiboev@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan agrar sektorning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi o'rni tahlil qilinadi. Qishloq xo'jaligi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki ish o'rinlari yaratish, eksport hajmini oshirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlar asosida agrar sohani modernizatsiya qilish va investitsiya faolligini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud metodologik yondashuvlar va byurokratik to'siqlar investitsiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada agrar sektorga investitsiyalarni jalb etishning amaldagi holati raqamlar asosida tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish uchun takomillashgan metodologik takliflar ishlab chiqiladi. Jumladan, infratuzilmani rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro tajribani o'rganish va malakali kadrlar tayyorlash asosiy e'tibor markazida turadi.

Kalit so'zlar: O'zbekistonda agrar sektori, qishloq xo'jaligi investitsiyalari, O'zbekiston – 2030 strategiyasi, infratuzilmaviy innovatsiyalar, eksport raqobatbardoshligi.

Abstract: This article analyzes the role of the agricultural sector, one of the main sectors of the economy of Uzbekistan, in the country's economic growth. Agriculture is important not only in ensuring food security, but also in creating jobs, increasing exports, and socio-economic development of regions. Although a number of reforms have been implemented to modernize the agricultural sector and increase investment activity based on the priority areas set out in the "Uzbekistan - 2030" strategy, existing methodological approaches and bureaucratic obstacles negatively affect investment efficiency. The article analyzes the current state of attracting investments to the agricultural sector based on figures, identifies existing problems, and develops improved methodological proposals to eliminate them. In particular, the main focus is on developing infrastructure, introducing innovations, studying international experience, and training qualified personnel.

Keywords: agricultural sector in Uzbekistan, agricultural investments, Uzbekistan - 2030 strategy, infrastructure innovations, export competitiveness.

Аннотация: В статье анализируется роль аграрного сектора, одного из основных секторов экономики Узбекистана, в экономическом росте страны. Сельское хозяйство играет важную роль не только в обеспечении продовольственной безопасности, но и в создании рабочих мест, увеличении экспорта и социально-экономическом развитии регионов. Несмотря на проведение ряда реформ, направленных на модернизацию аграрного сектора и повышение инвестиционной активности на основе приоритетных направлений, обозначенных в стратегии «Узбекистан – 2030», существующие методологические подходы и бюрократические препоны негативно влияют на эффективность инвестиций. В статье на основе статистических данных анализируется текущее состояние привлечения инвестиций в аграрный сектор, выявляются существующие проблемы и разрабатываются усовершенствованные методические предложения по их устранению. В частности, основное внимание уделяется развитию инфраструктуры, внедрению инноваций, изучению международного опыта и подготовке квалифицированных кадров.

Ключевые слова: аграрный сектор Узбекистана, инвестиции в сельское хозяйство, стратегия «Узбекистан – 2030», инфраструктурные инновации, конкурентоспособность экспорта.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va diversifikatsiyalashgan rivojlanishida agrar sektor muhim o'rin egallaydi. Qishloq xo'jaligi tarmog'i nafaqat aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini oshirish va qishloq hududlarini kompleks rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida agrar soha alohida e'tiborda bo'lib, uni modernizatsiya qilish, ilmiy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Qishloq xo'jaligi – xalqimizning hayot darajasi va oziq-ovqat xavfsizligining asosi bo'lib, u zamonaviy yondashuvlar va investitsiyalar evaziga jadal rivojlanmog'i zarur."¹ "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham agrar sohani raqamlashtirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, agroholding va kooperatsiyalarni rivojlantirish, shuningdek, xalqaro investitsiyalarni keng jalb qilish orqali tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish belgilangan². Ushbu yondashuvlar nafaqat ichki bozorni barqarorlashtirish, balki xorijiy bozorlar talabiga mos mahsulotlar yetishtirish imkonini beradi.

Shunga qaramay, bugungi kunda agrar sektorga investitsiyalarni jalb qilishda bir qator tizimli muammolar va metodologik kamchiliklar mavjud. Ularni bartaraf etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushini oshirish, iqtisodiy o'sishga qo'shilayotgan hissasini kuchaytirish mumkin³.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 20 dekabr 2022 yil. – <https://president.uz/uz/lists/view/5884>

² "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-160-son Farmoni. – <https://lex.uz/docs/6753566>

³ Jahon banki. (2022). *Agriculture Sector Review for Uzbekistan*. Washington, D.C. – <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication>

Mazkur maqolada O'zbekistonda agrar sektorga investitsiyalarni jalb etishning amaldagi holati tahlil qilinadi, muammolar aniqlanadi hamda uni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasiga investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishda hali ham tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, investitsiyalarni ro'yxatdan o'tkazish va zarur ruxsatnomalarni olish jarayonlari murakkabligi va vaqt talab qilishi bilan ajralib turadi⁴. Qishloq hududlarida mavjud bo'lgan infratuzilmaviy kamchiliklar, ayniqsa logistika va saqlash tizimlarining rivojlanmaganligi mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda hamda eksport salohiyatini cheklab qo'ymoqda⁵. Malakali kadrlar tanqisligi esa zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqarishni sezilarli darajada cheklamoqda⁶. Shu bilan birga, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari xalqaro bozorlarda kuchli raqobatga duch kelmoqda, bu esa mahsulotlarning global bozor ulushini va eksport hajmini kamaytirmoqda⁷.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida agrar sohaga investitsiyalarni samarali jalb etish bo'yicha bir qator uslubiy takliflar ilgari surilmoqda. Avvalo, investitsiya muhitini soddalashtirish zarur. Bunga investitsiyalarni ro'yxatga olish jarayonlarini raqamlashtirish, yagona "yagona darcha" tizimini joriy etish hamda uzoq muddatli kapital oqimini rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali erishish mumkin⁸. Bundan tashqari, mulk huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi va xorijiy investorlar uchun ochiq, shaffof normativ-huquqiy baza yaratishga qaratilgan huquqiy islohotlarni amalga oshirish zarur⁹.

Mahalliy ishlab chiqarish va xalqaro savdo salohiyatini mustahkamlash uchun infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim. Sovuq saqlash omborlari va zamonaviy transport infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar yetkazib berish zanjirining samaradorligini oshiradi¹⁰. Shu bilan birga, zamonaviy qayta ishlash va mahsulot qadoqlash korxonalarini tashkil etish mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shadi va umumiy raqobatbardoshlikni oshiradi.

Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tarmoq samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalari – dronlar, sun'iy intellekt va narsalar interneti (IoT) – orqali hosildorlikni oshirish mumkin. Shu bilan bir qatorda, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha qo'shma tashabbuslarni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Tashqi bozorlarga kirish salohiyatini kuchaytirish uchun "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" ("Made in Uzbekistan") brendi ostida mahsulotlarni ilgari surish va xalqaro bozorda ijobiy imidj yaratish bo'yicha kompleks brending va marketing strategiyalarini

⁴ Jahon banki. (2020). *Doing Business 2020: 190 ta mamlakatda biznes yuritish bo'yicha solishtirma tahlil*.

⁵ FAO. (2021). O'zbekiston qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektori transformatsiyasi. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti.

⁶ OECD. (2023). O'zbekiston: Qishloq xo'jaligida innovatsiya va barqarorlik bo'yicha mamlakat sharhi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.

⁷ UNCTAD. (2022). *Jahon investitsiyalar hisoboti 2022: pandemiyadan keyingi xalqaro ishlab chiqarish*. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi.

⁸ BMTD. (2020). O'zbekistonda biznes va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha tashabbuslar. BMT Taraqqiyot Dasturi.

⁹ YETTB. (2022). O'zbekistonda investitsiya muhiti va boshqaruv. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.

¹⁰ OTB. (2021). O'zbekiston: Qishloq infratuzilmasini yaxshilash loyihasi. Osiyo Taraqqiyot Banki.

ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir¹¹. Eksport geografiasini kengaytirish va yangi bozor segmentlariga kirish uchun xalqaro yarmarka va forumlarda faol ishtirok etish zarur.

Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash barqaror investitsiyalarni jalb qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Shu maqsadda zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalarini boshqarish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish lozim. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashish dasturlari orqali ilg'or bilim va amaliy ko'nikmalarni mahalliy mutaxassislariga yetkazish imkoniyatlari kengaytiriladi¹².

Metodologiya

Maqolada O'zbekiston agrar sektoriga investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, mavjud tizimdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Ilmiy tahlil jarayonida ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash va iqtisodiy-statistik, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi eng muhim tarmoqlardan biri bo'lgan agrar sektor mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu sektor nafaqat aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi, balki eksport daromadlari, ish o'rinlari yaratish va qishloq joylarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda hukumat agrar sohada islohotlarni amalga oshirib, investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Biroq, investitsiyalarni jalb etish metodologiyasini takomillashtirish orqali agrar sektorning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini yanada oshirish mumkin. Ushbu maqola agrar sektorga investitsiyalarni jalb etishning mavjud holatini tahlil qilish va uni yaxshilash bo'yicha takliflar berishga qaratilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor muhim tarkibiy qism sifatida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda. Ushbu soha yalpi ichki mahsulotning (YAIM) yillik 25–30 foizini tashkil etishi bilan birga, mehnat bozorining muhim yetkazib beruvchisi hisoblanadi. So'nggi besh yillik ma'lumotlarga ko'ra, agrar sohada ish bilan band bo'lganlar soni 2020 yilda 3,2 million kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 3,4 million kishigacha oshgan. Bundan tashqari, O'zbekiston agrar mahsulotlarining eksport hajmi barqaror o'sib bormoqda. 2020 yilda qishloq xo'jaligi eksporti 1,5 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu raqam 2,3 milliard AQSh dollarigacha yetdi. Eksportning asosiy tarkibini paxta, meva-sabzavotlar, don mahsulotlari va chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

¹¹ ITC. (2022). *O'zbekiston mahsulotlarini xalqaro bozorda targ'ib qilish va brendlash strategiyasi*. Xalqaro savdo markazi.

¹² GIZ. (2021). *Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi ta'limini takomillashtirish*. Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati.

Quyidagi jadval agrar sektorning YAIMdagi ulushi, bandlik darajasi va eksport hajmidagi dinamikani aks ettiradi (1 jadval).

Jadval 1. O'zbekiston agrar sektorining YAIMdagi ulushi, bandlik darajasi va eksport hajmining yillik dinamikasi (2020–2024)¹³.

Yil	YAIMdagi ulushi (%)	Ish bilan ta'minlanganlar (ming kishi)	Eksport hajmi (mln AQSh dollari)
2020	27.5	3,200	1,500
2021	26.8	3,250	1,700
2022	26.0	3,300	1,900
2023	25.7	3,350	2,100
2024	25.2	3,400	2,300

Mazkur statistik ma'lumotlar O'zbekiston agrar sektorining milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Sektorning YaIMdagi barqaror ulushi, bandlikdagi salmoqli hissasi va eksport hajmining yildan-yilga o'sishi ushbu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini tasdiqlaydi. Biroq, sektor salohiyatidan to'liq foydalanish, uni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun keng ko'lamli modernizatsiya jarayonlariga zarurat mavjud. Ushbu modernizatsiya jarayonlari quyidagi asosiy yo'nalishlarga qaratilishi lozim:

1. Yangi texnologiyalarni joriy etishda ilg'or agrotexnologik yechimlar va raqamli innovatsiyalar mahsulot sifatini oshirish, hosildorlikni ko'paytirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini ta'minlaydi.

2. Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishda zamonaviy texnika va jihozlar asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish zanjiri orqali mahsulot tannarxini kamaytirish, raqobatbardoshlik va rentabellikni oshirish mumkin bo'ladi.

3. Infratuzilmaviy rivojlanishda logistika tizimlari, saqlash omborlari, suv ta'minoti va energiya infratuzilmasini takomillashtirish orqali agrar qiymat zanjirining barcha bo'g'inlarida samaradorlikni ta'minlash zarur.

4. Xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlash, ularni brendlash, qadoqlash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali yangi bozor segmentlarini egallash imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, agrar sektorni strategik yo'nalishda rivojlantirish O'zbekiston uchun nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki eksport hajmini oshirish va qishloq hududlarida yashovchi aholining farovonligini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (<https://stat.uz>)



1-Rasm. Investitsiyalarni jalb etishning jarayoni¹⁴

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish va xorijiy hamda mahalliy kapital oqimini rag'batlantirish maqsadida kompleks islohotlar tizimini amalga oshirmoqda. Mazkur islohotlar agrar sektorni modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish hamda xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, soliq imtiyozlari va fiskal preferensiyalar tizimi joriy etilib, qishloq xo'jaligi subyektlari uchun soliq yukini kamaytirish orqali ularning investitsiyaviy faolligini oshirish maqsad qilingan. Bu usul bevosita moliyaviy rag'batlantirish vositasi sifatida investorlarga qulay iqtisodiy sharoitlar yaratmoqda;

Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanish orqali agrar sohaning kapital sig'imi yuqori tarmoqlariga xususiy sektor mablag'lari jalb qilinmoqda. Ayniqsa, infratuzilma, logistika, saqlash tizimlari va qayta ishlash sanoati yo'nalishlarida DXSh loyihalari keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Bu esa resurslardan samarali foydalanishni va investitsion xavflarni taqsimlashni ta'minlamoqda;

Uchinchidan, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikning faollashuvi kuzatilmoqda. Jumladan, Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki va boshqa donor tashkilotlar tomonidan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan kredit liniyalari, grant dasturlari va texnik yordam loyihalari orqali sektorning investitsion salohiyati kuchaytirilmoqda;

To'rtinchidan, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Investitsiyalarni himoya qilish, investorlar huquqlarini kafolatlash va ularning faoliyati uchun barqaror huquqiy muhit yaratish maqsadida qator yangi qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilinmoqda. Ushbu huquqiy islohotlar investorlarning uzoq muddatli ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, amalga oshirilayotgan institutsional o'zgarishlar O'zbekiston agrar sektorini investitsiyaviy nuqtai nazardan yanada jozibador qilishga, shuningdek, milliy iqtisodiyotning barqaror va diversifikatsiyalashgan rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

¹⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasida investitsiyalarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omilidir. Byurokratik, infratuzilmaviy, texnologik va kadrlar bilan bog'liq muammolarni hal etishga yo'naltirilgan kompleks yondashuv, bir vaqtning o'zida xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish bilan birga, mamlakatning agrar sektorini jahon miqyosida yetakchi o'rinlarga olib chiqishiga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarga erishishda davlat organlari, xususiy sektor va xalqaro hamkorlarning muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va diversifikatsiyalashgan rivojlanishida agrar sektor alohida strategik ahamiyatga ega. Mavjud statistik va empirik tahlillar qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM)da, bandlik darajasida va eksport ko'rsatkichlarida yetakchi o'rinda ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu sektor nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki hududiy iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, ijtimoiy muvozanatni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy faollikni oshirishda ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, agrar sektorning texnologik darajasi, mehnat unumdorligi va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi hanuzgacha yetarli darajada emas. Ushbu holat agrar sohaga chuqur institutsional va texnologik islohotlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Quyidagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining modernizatsiyasini ta'minlash, iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Innovatsion texnologiyalarni joriy etishning tizimli asosda kengaytirilish, ya'ni tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mehnat unumdorligi va hosildorlik ko'rsatkichlari texnologik yangilanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli, aqlli dehqonchilik (smart farming), raqamli agroxizmatlar, dronlar, IoT (Internet of Things) texnologiyalariga asoslangan agro-monitoring tizimlarini amaliyotga joriy etish orqali agrar ishlab chiqarishning samaradorligi va barqarorligi sezilarli darajada oshirilishi mumkin.

Xususiy investitsiyalar uchun institutsional va iqtisodiy rag'batlarni kuchaytirishda agrar sektor investitsion jihatdan yetarlicha jalb etilmagan bo'lib, bu holat sohaga innovatsion kapital oqimining cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini yanada takomillashtirish, soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish, shuningdek, agrar kreditlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq infratuzilmasini kompleks va hududiy nuqtai nazardan rivojlantirishda mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksportga tayyorlash jarayonlarida mavjud infratuzilmaviy muammolar ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymatini pasaytirishga olib kelmoqda. Shu bois, logistika markazlari, sovetgich omborlari, zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimlari kabi infratuzilmaviy loyihalarni strategik jihatdan rivojlantirish zarur.

Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishda "Daladan – dasturxongacha" tamoyiliga asoslangan agrosanoat klasterlari agrar ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini birlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa eksportbop,

raqobatbardosh va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Agrar ta'lim va ilmiy-tadqiqot tizimining transformatsiyasini jadallashtirishda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishga qodir bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash va ularning ilmiy-texnik salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agrar oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishiga e'tibor qaratish lozim.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorga chiqishini rag'batlantiruvchi tizimlarni joriy etish, ya'ni agrar mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, xalqaro standartlarga mos sertifikatlash, ekologik qadoqlash va eksport logistikasi tizimlarini yo'lga qo'yish strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 20 dekabr 2022 yil. – <https://president.uz/uz/lists/view/5884>
2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-160-son Farmoni. – <https://lex.uz/docs/6753566>
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari (<https://stat.uz>)
4. Jahon banki. (2022). *Agriculture Sector Review for Uzbekistan*. Washington, D.C. – <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication>
5. Jahon banki. (2020). *Doing Business 2020: 190 ta mamlakatda biznes yuritish bo'yicha solishtirma tahlil*.
6. FAO. (2021). O'zbekiston qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektori transformatsiyasi. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti.
7. OECD. (2023). O'zbekiston: Qishloq xo'jaligida innovatsiya va barqarorlik bo'yicha mamlakat sharhi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti.
8. UNCTAD. (2022). *Jahon investitsiyalar hisoboti 2022: pandemiyadan keyingi xalqaro ishlab chiqarish*. BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi.
9. BMTTD. (2020). O'zbekistonda biznes va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha tashabbuslar. BMT Taraqqiyot Dasturi.
10. YETTB. (2022). O'zbekistonda investitsiya muhiti va boshqaruv. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.
11. OTB. (2021). O'zbekiston: Qishloq infratuzilmasini yaxshilash loyihasi. Osiyo Taraqqiyot Banki.
12. ITC. (2022). *O'zbekiston mahsulotlarini xalqaro bozorda targ'ib qilish va brendlash strategiyasi*. Xalqaro savdo markazi.
13. GIZ. (2021). *Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi ta'limini takomillashtirish*. Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati.

